
OG'UFURUSHLAR



Marxamat tumanida yashovchi Xojimatov Sardorbek va Sultonov Dostonbek, Qirg'iziston Respublikasida yashovchi "Shavkat" ismli shaxs chegaradan olib o'tgan 500 gramm gashish giyohvandlik vositasini o'zlarini o'zaro kelishuvga ko'ra, Andijon viloyati Marhamat tumani Rohat MFYda joylashgan qabriston hududiga yashirib qo'ygan.

Ushbu yashirilgan giyohvandlik vositasini D.Sultonov olib, 500 AQSh dollari evaziga S.Xojimatov belgilagan manzil ya'ni, Quva tumani "Ulfatlar" choyxonasida maxsus xaridorga 451 gramm "Gashish" giyohvandlik vositasini 5.000 AQSh dollari evaziga sotgan vaqtda huquqni muhofaza qiluvchi organlari xodimlari tomonidan ushlangan.

Mazkur jinoyat ishi 2021 yil 9 iyun kuni jinoyat ishlari bo'yicha Quva tuman sudi tomonidan mazmunan ko'rib chiqilib, S.Xojimatov va D.Sultonovlar O'zbekiston Respublikasi JK 28,246-moddasi 2-qismi bilan va 273-moddasi 5-qismi bilan aybdor deb topilib, ularga 8 yil muddatga ozodlikdan maxrum qilindi.

Q.Abdullayev

Jinoyat ishlari bo'yicha

Quva tuman sudining sudyasi

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Youtube](#)

2021-08-28 08:32:58